

DIAREYA BILAN KASALLANGAN BOLALARDA AJRALUVCHI ICHAK MIKROFLORALARI

Shayqulov Hamza Shodievich

hamzashayqulov@gmail.com

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, katta o'qituvchisi

Mamadiyorova Mashxura Mashrabovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, pediatriya fakulteti talabasi

Hayitov Safarali Mahammadi o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, pediatriya fakulteti talabasi

***Annatsiya.** Ilmiy ishda deareya bilan kasallangan kattalar va bolalarning ichak mikroflorasi urganilib undagi o'zgarishlar jismonan sog'lom - nazorat guruhidagilarning ichak mikroflorasi ko'rsatkichlariga nisbatan qiyosiy ma'lumotlar yoritilgan. Bunda etiologiyasida dizenteriya bo'lmagan o'tkir ichak kasallklari bilan kasallangan jami 111 bemor va qiyoslash uchun 186 nafar sog'lom (116 bola, 70 kattalar) o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar.** E.coli, deareya, mikroflora, disbakterioz, o'tkir ichak kasallklari, shartli patogen, gemolitik, esherixiya, ichburug', enterokokk, stafilokokk, zamburug'.*

Kirish. So'nggi yillarda shartli patogen mikroorganizmlar keltirib chiqaradigan kasalliklar salmog'ining ortishi munosabati bilan yallig'lanish kasalliklarida ichak normal mikroflorasi vakillarining rolini o'rganishga qiziqish sezilarli darajada ortdi [3, 5-11,17-19]. Qat'iy va fakultativ ichak floralarning ko'plab vakmlari shartli patogenlardir [1, 4-7, 9, 14-19].

Antibiotiklar va kimyoterapevtik preparatlarning keng qo'llanilishi tufayli odamlar ichagi normal mikroflorasi vakillaridan bo'lgan shartli patogenlarning turli xil kasalliklarni keltirib chiqarishdagi rolini urganish sezilarli darajada oshdi [3,5,11-18].

Ichak mikroorganizmlarining keng vakillari orasida gemolitik esherixiyalar bolalar ichak patologiyasida katta ahamiyatga egadir [6,17,20].

Ishning maqsadi. Ushbu maqolada biz ichak yallig'lanish kasalliklari bilan kasallanganlar va jismonan sog'lom bo'dgan kattalar va bolalarning ichak mikroflorasi tarkibini o'rganganishga ta'lluqli ma'lumotlarni taqdim etamiz.

Material va uslublar. Etiologiyasida dizenteriya (ichburug‘) bo‘lmagan o‘tkir ichak kasalliklari bilan kasallangan jami 111 bemor va qiyoslash uchun 186 nafar sog‘lom (116 bola, 70 kattalar) o‘rganildi.

Materiallar (ichak ajratmasi-najas) kasalxonaga yotqizilganidan keyin 1-3 kunlarda olindi. Mikrofloraning sifat va miqdoriy Sog‘liqni saqlash vazirligining metodologiyasi, disbakterioz diagnostikasi bo‘yicha ko‘rsatmalarga muvofiq amalga oshirildi [12].

Jismonan sog‘lom bolalarning najaslarini bakteriologik tadqiqotlar natijalari ichak kasalliklari bilan kasallanganlardagi mikrofloraning tarkibi va xususiyatlarining o‘zgarishini tavsiflash uchun asos bo‘ldi.

Olingan natijalar. Jismonan sog‘lom bolalarning ichak ajratmalari tarkibida E.coli bakteriyalari 100% holatlarda ajralishi kuzatildi. Enterokokklar biroz kamroq ($84,5 \pm 3,3\%$) ajralishi kuzatildi.

Ichak o‘tkir yuqumli kasalliklari bilan kasallanganlarning ichak florasida chuqur o‘zgarishlar kuzatildi.

Avvalo, patogenlik belgilariga ega bo‘lgan mikroorganizmlar soni keskin ortganligi aniqlandi. Sog‘lom va kasallangan bolalarning natijalari o‘zaro qiyoslanganda, kasallangan bolalarda gemolitik va enteropatogen esherixiya serotiplari deyarli uch baravar ortib ketishi ma’lum bo‘ldi.

Sog‘lom bolalar va bemor bolalardan ajratilgan gemolitik ichak floralari o‘zaro qiyoslanganda, sog‘lom bolalarga nisbatan bemor bolalarda gemolitik stafilokokklar to‘rt baravar ko‘p - 54,9 foiz hollarda uchrashi, va ulardan 14,4 foizida tillarang stafilokokklar bo‘lib, sog‘lom odamlarda ular aniqlanmadi. Gemolitik enterokokklar nazoratdag sog‘lom guruhdagilarga nisbatan bemorlarda besh marotaba ko‘p aniqlandi.

Achitqi va achitqisimon zamburug‘lar sog‘lom odamlarda 5,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bemorlarda 3,5 martadan ko‘proq aniqlandi. Xuddi shunday ko‘rsatgich protey tayoqchalariga nisbatan ham kuzatildi.

Dizenteriya etiologiyali ichak o‘tkir bakterial kasalliklarining aksariyat hollarida uch yoki to‘rt (32,4% va 42,3%) turdagi shartli patogen mikroorganizmlarning assotsiatsiyasi ko‘rinishida aniqlandi. Bunda ko‘pincha ichak tayoqchalari bilan birgalikda + enterokokklar + stafilokokklar + proteus tayoqchalarining o‘zaro assotsiatsiyasi qayd etildi.

Tadqiqotlarimizda gemolitik enterokokklar surunkali kolit va enterokolitdari bo‘dgan bemorlarda sog‘lom odamlarga qaraganda deyarli sakkiz marta ko‘p, surunkali dizenteriya bilan og‘rigan bemorlarda esa uch baravar ko‘proq ajratildi.

Ichak disbakteriozining ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan achitqi va achitqisimon zamburug‘larning uchrashi bo‘yicha ma’lumotlar ham qiziqarlidir. Ushbu

mikroorganizmlar surunkali kolit bilan og‘rigan bemorlarning deyarli yarmida (47,4%) va dizenteriyaning o‘tkir va surunkali shakllari bo‘lgan bolalarning 25 foizidan ajratilgan. Bu floralar nazorat guruhi bo‘lgan jismonan sog‘lom odamlarda 5,1-5,7% hollarda aniqlandi.

Xulosa:

1. Diareya kuzatilgan bolalarda patogenlik omillari bo‘lgan mikroorganizmlar soni keskin ortadi (gemolitik ichak tayoqchasi 85%, gemolitik stafilokokklar 54,9%, gemolitik enterokokklar 62%, achitqi va achitqisimon zamburug‘lar 25% hollargacha).

2. Gemolitik esherixiyalar bemor bolalardan yuqori chastotalarda ($85,0 \pm 1,7$) uchrasa va sog‘lom bolalarda past chastotalarda ($8,2 \pm 1,5$) ajralishini va bunday holat diareyaning laboratoriya diagnostikasida e‘tiborga olinishi kerakligi e‘tiborlidir.

References:

1. Аминов З. З. и др. Социальные аспекты и роль питания в стоматологическом здоровье детей и подростков //Academy. – 2019. – №. 10 (49). – С. 50-56.
2. Мухамедов И. М., Юсупов М. И., Шайкулов Х. Ш. ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЙ ДИАГНОЗ ЭНТЕРОКОЛИТОВ У ДЕТЕЙ //Innova. – 2022. – №. 2 (27). – С. 35-39.
3. Нарзиев Д., Шайкулов Х. Чувствительность к антибиотикам salmonella typhimurium, находящихся в составе биопленок //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 60-64.
4. Расулова М. Р., Юлаева И. А., Шодиев Ж. Х. СОВРЕМЕННАЯ КЛАССИФИКАЦИЯХ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2023. – Т. 1. – №. 17. – С. 120-127.
5. Расулова М., Юлаева И., Шодиев Ж. ПЕРЕЛОМЫ КОСТЕЙ НОСА В ПРАКТИКЕ СУДЕБНО-МЕДИЦИНСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 78-84.
6. Саъдинов П. и др. Клинико-эпидемиологическая характеристика стафилококковых энтероколитов у детей раннего возраста //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2014. – №. 3 (79). – С. 151-152.
7. Шайкулов Х. Ш., Худаярова Г. Н. Развитие кишечных расстройств у детей грудного возраста, вызванных различными микроорганизмами и гельминтами //Педиатр. – 2017. – Т. 8. – №. S.
8. Шайкулов, Х. Ш. Esherixioz bilan kasallangan bolalardan ajratilgan gemolitik E.coli bakteriyalarining antibiotiklarga sezgirligi / Х. Ш. Шайкулов, М. Р. Расулова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2023. — № 4 (451). — С. 489-491. — URL: <https://moluch.ru/archive/451/99414/>

9. Шайкулов, Х. Ш. Антибиотикочувствительность гемолитических E.coli, выделенных от детей больных эшерихиозом / Х. Ш. Шайкулов, М. Р. Расулова // Молодой ученый. – 2023. – № 4(451). – С. 489-491. – EDN AJSWBL.
10. Шайкулов Ҳамза Шодиевич, Нарзиев Джавохир Убайдуллаевич БОЛАЛАР ИЧАК ЭШЕРИХИОЗИНИ ДАВОЛАШДА АНТИБИОТИКОРЕЗИСТЕНТ ЛАКТОБАКТЕРИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2023. №17. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bolalar-ichak-esherihiozini-davolashda-antibiotikorezistent-laktobakteriyalardan-foydalanishning-samaradorligi>
11. Abdumuminova R. N., Bulyaev Z. K., Ch X. N. THE IMPORTANCE OF NITRATES IN FOOD SAFETY //E-Conference Globe. – 2021. – С. 35-37.
12. Abdumuminova R. N., Sh B. R., Bulyaev Z. K. On The Importance Of The Human Body, Nitrates //The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. – 2021. – Т. 3. – №. 04. – С. 150-153.
13. Hamza, S., Muzaffar, A. ., Dildora, S., & Ulug‘bek, A. . (2023). BACILLUS THURINGIENSIS БАКТЕРИЯ ШТАММЛАРИНИНГ PHASEOLUS VULGARIS О‘СИМЛИГИ БИОМЕТРИК КО‘РСАТКИЧЛАРИГА ВА РИВОЖЛАНИШИГА ТА‘СИРИ. Scientific Impulse, 1(6), 327–332. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/4355>
14. Naimova Z. et al. Hygienic Assessment Of Emission Influence From A Chemical Plant On Population’s Household Conditions, Well-Being And Health //The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. – 2021. – Т. 3. – №. 01. – С. 76-80.
15. Narbuvaevna A. R., Karimovich B. Z., Mahramovna M. M. Improving Food Safety and Improving the Fundamentals of Reducing the Negative Effects on The Environment //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 5. – С. 41-46.
16. Norbuvaevna A. R., Maxramovna M. M., Karimovich B. Z. Studying the influence of agricultural factors on the quality of the fruit of Peach plants //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1353-1357.
17. Normamatovich F. P. et al. RATIONALE FOR THE APPLICATION OF THE HACCP SYSTEM IN THE PRODUCTION OF FUNCTIONAL FOOD PRODUCTS //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2021. – Т. 8. – №. 3. – С. 1535-1539.
18. Sh S. H., Mamarasulova N. I. АНТИБИОТИКЛАР ВА АНТИБИОТИКОРЕЗИСТЕНТ ЛАКТОБАКТЕРИЯЛАРНИ БИРГАЛИКДА БОЛАЛАРДАГИ ЭШЕРИХИОЗ КАСАЛЛИКЛАРНИ ДАВОЛАШДА ҚО‘ЛЛАНИШИ. – 2023.

19. Shayqulov Hamza Shodievich, & Narziev Djavoxir Ubaydullaevich. (2023). BAKTERIAL ICHBURUG' BILAN OG'RIGAN BEMORLARNING IMMUN KO'RSATKICHLARIDAGI AYRIM O'ZGARISHLAR. GOLDEN BRAIN, 1(5), 163–167. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7677040>
20. Tuxtarov B., Baratova R., Bulyaev Z. IF THE SOIL IS HEALTHY //InterConf. – 2021.